



## PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

*Qudratullayeva Ehtiromxon*

*O'zbekiston davlat San'at va madaniyat  
instituti Farqona mintaqaviy filiali 3 kurs talabasi.*

**ANNOTATSIYA.** *Ushbu maqolada Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi mavzusida juda kerakli aniq va batafsil ma'lumotlar aytib o'tilgan. Bu mavzuni o'qir ekansiz o'zingizga kerakli ko'plab ma'lumotlarni topishingiz mumkin.*

**KALIT SO'ZLAR.** *Pedagogika, noshqs fanlar, aloqadorlik, Falsafa, Iqtisod, Estetika, Psixologiya.*

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarni imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtayi nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarini tahlil etishga imkon beradi. Bundan tashqari falsafaning istalgan fanga nisbatan, shu jumladan, pedagogikaga nisbatan metodologik vazifasi ham shunda namoyon bo'ladiki, u ilmiy bilishning umumiy tamoyillari va usullari tizimini ishlab chiqadi. Pedagogik bilimlarni egallash jarayoni falsafa gao'tganadigan umumiy qonuniyatlarga bo'linadi. Falsafa pedagogik tajribani anglash va pedagogik konsepsiyalar yaratishning nazariy platformasi hamdir. Pedagogik tajriba o'tkazish va tajriba natijalarini falsafiy asoslashsiz fan statusiga ega bo'lolmaydi.



Iqtisod - pedagogikaning iqtisodiy fanlar bilan munosabatlari murakkab va bir ma'noli emas. Iqtisodiy siyosat har doim jamiyat savodxonligining rivojlanishida zaruriy shart bo'lib kelgan. Pedagogikaning rivojlanishida bu sohada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni iqtisodiy rag'batlantirish muhim omil hisoblanadi. Bu fanlar orasidagi bog'lanish ta'limning iqtisod kabi bilim sohasida amal qilish spetsifikatsiyasi hisoblanadi.

Etika - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

Estetika - shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Pedagogikaning ijtimoiy pedagogika bilan aloqasi ham an'anaviy aloqalar sirasiga kiradi, chunki ularning birinchisi ham, ikkinchisi ham ta'limni rejalashtirish, aholining u yoki bu guruhi rivojlanishining asosiy tendensiyasini, turli ijtimoiy institutlarida sotsializatsiyalash va tarbiyalash qonuniyatlarini aniqlash maqsadini ko'zlaydi. Pedagogikaning politologiya bilan aloqasi shundan iboratki, unda ta'lim siyosati har doim davlat g'oyasini aks ettiradi, uni konseptual shakllar va nazariyalar qayta ishlab chiqadi. Pedagogika insonning siyosiy ongining subyektivi sifatida shakllanish sharti va mexanizmini, siyosiy g'oyalar, ko'rsatmalar, siyosiy dunyoqarashni o'zlashtirish imkoniyatlarini aniqlashga intiladi.

Psixologiya - Pedagogika chinakam fan bo'lishi va pedagogning faoliyatini samarali yo'naltirishi uchun inson uning o'ziga xos va aniq rivojida ishtirok etadigan reallikni hisobga olishi kerak. Inson tabiatning o'ziga xos xususiyatlarini, uning tabiiy ehtiyojlarini va imkoniyatlarini tushunish, shaxsning mohiy faoliyat va rivojlanish mexanizmlarini, qonunlarini hisobga olish ta'lim (o'qitish va tarbiyalash) ni tashkil etish talabini, shularga mos qonunlar, xossalarni, ehtiyojlar imkoniyatlarini barcha mashhur pedagoglar ilgari surishgan. Shunga ko'ra pedagogikaning psixologiya bilan aloqasini tahlil qilishda metodologik nuqtavi nazar sifatida



psixologizmni ta'lim jarayonida ilmiy asoslangan eng muhim manbai bo'lgan va manbai bo'lib qoladigan fan sifatidagi psixologiyadan farqlay olish muhim.

Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash. uning organizmida namoyon bolayotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Gigiyena - o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi. Pedagogikaning meditsina bilan aloqasi pedagogik bilimlarni maxsus sohasi korreksion pedagogikaning paydo bo'lishiga olib keladi. Uning predmeti rivojlanishida orttirilgan yoki tug'ma nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarga ta'lim berishdir. U tibbiy vositalar tizimi bilan o'zaro aloqa ishlab chiqadi. Uning yordamida terapevtik samaraga erishiladi va shunday pozitsiyalar o'zlashtiriladiki, ularning roli qimmat mavjud nuqsonlar o'rnini bosuvchi yoki ularni og'irliklarini kamaytiruvchi sotsializatsiya jarayonini yengillashtiradi.

Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

Madaniyatshunoslik — o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavurini shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. Xoliqov. "Pedagogik mahorat". -T.: Iqtisod-moliya. 2010
2. Umumiy pedagogik. TOSHKENT - 2018. R. A. M. av lo n o v a, N .H .R. ahmonqu|Iova, K .O .Matnazarov a , M .K .S hirinov , S .Hafizov.
3. J. Xasanboyev, H. Sariboyev, G. Niyozov, O. Hasanboyeva, M. Usmonboyeva. "Pedagogika". Q'quv qo'llanma. -T.: Fan, 2006.